YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIMI –TARAQQIYOT BOSQICHIDA

Tursunboy Fayzullaev
siyosiy fanlar doktori, professor
Xujamberdieva Shaxnoza Kupaysinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqola prof. U.I. Inoyatovning “Yangi O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim” nomli asari tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish hamda uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari (maktabgacha, maktab va oliy ta’lim) o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash masalalari yoritilgan. Mualliflar keyingi yillarda amalga oshirilgan strategik o‘zgarishlar – 11 yillik maktab ta’limining tiklanishi, iqtidorli bolalar va Prezident maktablarining tashkil etilishi, oliy ta’lim bilan qamrov darajasining oshishi hamda o‘qituvchi kasbining jamiyatdagi nufuzini yuksaltirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni pedagogik va ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan tahlil qiladilar.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta’lim, Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, oliy ta’lim, pedagog nufuzi, ta’lim islohotlari.

Аннотация: Статья проф. Работа У.И. Иноятова «Непрерывное образование в Новом Узбекистане» посвящена анализу, в которой освещены вопросы коренного реформирования системы образования и воспитания в нашей стране, создания фундамента Третьего Ренессанса и обеспечения преемственности между всеми этапами непрерывного образования (дошкольного, школьного и высшего образования). Авторы анализируют с педагогической и социально-политической точек зрения реализованные в последние годы стратегические изменения – восстановление 11-летнего школьного образования, создание школ для одаренных детей и Президентских школ, повышение уровня охвата высшим образованием, а также практические меры, направленные на повышение престижа профессии учителя в обществе.

Ключевые слова: непрерывное образование, Новый Узбекистан, Третий Ренессанс, дошкольное образование, школьное образование, высшее образование, престиж педагога, образовательные реформы.

Abstract: Article by Prof. The dissertation is dedicated to the analy-

sis of U.I. Inoyatov's work "Continuous Education in the New Uzbekistan", which highlights issues of fundamental reform of the education system in our country, laying the foundation for the Third Renaissance, and ensuring the continuity of all stages of continuous education (preschool, school, and higher education). The authors analyze from pedagogical and socio-political perspectives the strategic changes implemented in recent years – the restoration of 11-year school education, the establishment of gifted children's and Presidential schools, the increase in higher education enrollment, and practical measures aimed at enhancing the prestige of the teaching profession in society.

Keywords: continuous education, New Uzbekistan, Third Renaissance, preschool education, school education, higher education, teacher prestige, educational reforms.

O‘zbekistonning bugungi taraqqiyotida ijtimoiy hayotimizning barcha sohalari qatori ta’lim-tarbiya tizimi va uning yanada samaradorligini ta’minlash masalasi butun jamiyatimiz va xalqimizning doimiy diqqat-e’tiborida bo‘lib kelayotgan soha.

Bu borada keyingi yillarda mamlakatimizda jamoatchilik fikrini atroflicha o‘rganib, qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish yo‘lidan dadil borilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan yaqinda Yangi O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar mazmun-mohiyatini atroflicha yoritishga qaratilgan pedagogika fanlari doktori, professor Ulug‘bek Ilyosovich Inoyatovning “Yangi O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim” nomli kitobining keng jamoatchilik, jumladan, soha xodimlari e’tiboriga havola qilinishi e’tiborga sazovor.

Kitob Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning “Biz yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy xalqasi deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz" degan so‘zlari bilan boshlanadi.

Kitobda Yangi O‘zbekistonni bunyod etish borasida barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga ham yangi g‘oyalar kirib kelgani, ularni amalga oshirishda samarali o‘zgarishlar yuz berayotgani, Uchinchi Renessans uchun mustahkam poydevor yaratilayotgani ham ilmiy, ham hayotiy misollar asosida atroflicha tahlil qilinadi.

Muhimi, ta’limning har bir o‘zaro uzviy bog‘liq bosqichida ro‘yobga chiqarilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati tahlil qilingan, yechimini kutayotgan muammolar va erishilayotgan samaralar, yutuqlar ko‘rsat-

ib beriladi.

Shuningdek, sohadagi islohotlardan ko‘zlangan ezgu maqsadlar, strategik vazifalar ham yoritiladi.

Kitobda avvalo, davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning doimiy e’tibor va g‘amxo‘rliklari bois, o‘qituvchilarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini yanada oshirishga katta e’tibor berilayotgani alohida qayd qilinadi.

Ma’lumki, davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki kunidan boshlaboq, zamonaviy bilim va malakaga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari qilib tarbiyalash, shu maqsadda mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish masalalarini kun tartibiga qo‘yib kelyaptilar.

Bu bejiz emas, albatta. Chunki rivojlangan mamlakatlarda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta’lim tizimidan bog‘cha, maktab, ta’limning boshqa bo‘g‘inlaridan boshlanishini ko‘rish mumkin.

Shu bois, Prezidentimizning ta’lim sohasidagi islohotlarga bag‘ishlangan yig‘ilishlarida “Maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmasligiga, ta’lim va tarbiyaning asosiy poydevori maktab ekanligiga, maktabni maktab qiladigan kuch esa o‘qituvchi ekanligiga” alohida urg‘u berib, “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” deyishlarida ham shu ma’no bor.

Soha xodimlari sifatida ta’lim tizimi haqida gap ketganda, yaqin vaqtlarga qadar mazkur yo‘nalishda ma’lum ishlar bilan muammoli holatlar yig‘ilib qolganligini qayd qilish lozim.

Chunki mustaqillik yillarida ta’limga doir qonunlar, dasturlar qabul qilinishiga qaramay, maktablardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit, o‘qituvchi kasbining obro‘si va nufuzi past bo‘lib kelganidan, ularga doim tayyor "Hasharchi kuch” sifatida qarab kelinganidan barchamiz xabardormiz. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilinishiga yetarli e’tibor berilmagani ham haqiqat. Bular, shubhasiz, ta’lim mazmuni va sifatini tushirib yuborib, zamonaviy fikrlaydigan, malaka va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqardi.

Kitobda mana shu holatlar ishonarli tahlil qilinadi va Prezidentimiz tomonidan keyingi 8 yil davomida ta’lim tizimi, xususan, maktab ta’limini tubdan isloh qilishga kirishilgani hayotiy misollarda ko‘rsatib beriladi.

Avvalo, ta’lim tizimiga oid ko‘plab farmon va qarorlar, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilinib, tizimdagi islohotlarning huquqiy-me’yoriy asosi yangilandi.

Ikkinchidan, davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan ota-onalar va keng jamoatchilikning fikr-mulohazalari, takliflari hisobga olingan holda, mamlakatimizda 11 yillik maktab ta’lim tizimi tiklandi. Bunday tizimning tiklanishi ta’lim tizimi bosqichlarida ko‘zga tashlanayotgan ayrim muammolar, xususan, yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi zamonaviy bilimlar egallashidagi uzilishlarga barham berildi.

Uchinchidan, keyingi yillarda maktab ta’limida Prezidentimiz tashabbuslari bilan yangi maktablar ochish ishi boshlandi.

Yurtimizdan yetishib chiqqan, dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shgan buyuk alloma ajdodlarimiz – Mirzo Ulug‘bek, Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Temurbeklar maktabi, Prezident maktablari, taniqli ijodkorlar nomidagi, shuningdek, Is’hoqxon Ibrat ma’naviy-ma’rifiy maskanida xorijiy tillarni o‘rganishga ixtisoslashgan namunali, yangi zamonaviy ko‘rinishdagi maktablarning tashkil etilgani, mamlakatimiz yoshlari uchun ta’lim-tarbiya, zamonaviy bilim olish borasida yangi qo‘shimchi imkoniyatlar yaratildi.

To‘rtinchidan, keyingi yillarda pedagogik xodimlar mehnatini ham moddiy, ham ma’naviy rag‘batlantirishda tizimli, doimiy e’tibor berib kelinmoqda. Bular kitobda jonli misollar asosida yoritilgan.

Ta’lim tizimidagi islohotlar haqida gap ketganda, tabiiyki, mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishga katta e’tibor berilayotganini ham alohida ta’kidlash lozim.

Bu boradagi tub o‘zgarishlar kitobda aniq ko‘rsatiladi. Masalan, maktabgacha ta’limni rivojlantirish borasida boshlangan islohotlar natijasida keyingi sakkiz yilda maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 5,5 barobar ko‘paydi, ularda 28 mingdan ortiq ota-onalarning farzandlari tarbiyalanib, qamrov darajasi 76 foizga yetdi.

Ma’lumki, bugun hayotimizni oliy ta’lim tizimisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ushbu sohadagi islohotlar samarasi aynan shu sohadagi ishlarning qay darajada yo‘lga qo‘yilgani bilan chambarchas bog‘liq.

Hammamiz ko‘rib, his qilib turibmiz, mustaqillik yillarida oliy ta’lim tizimida juda ko‘p islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, keyingi 8 yil ichida bu yo‘nalishda katta o‘zgarishlar qilindi.

Shu bois, kitobda Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan mamlakatimiz taraqqiyotining yangi davrida oliy ta’lim sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish, professor-o‘qituvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilayotgani aniq yoritilgan. Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojdan kelib chiqib, yangi oliy ta’lim muassasalari tashkil etilyapti, mavjudlari ta’mirlanib, zamon talablariga moslashtirilayotir.

Prezidentimiz tashabbusi bilan oliy ta’limga qabul jarayonlarini adolat va shaffoflik mezonlari asosida tashkil etishga, ta’lim kvotalarini ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Kitobda qayd qilinganidek, qamrov 2016-yilda 9 foiz bo‘lgan bo‘lsa, hozirda 48 foizga ortdi.

Bu esa yoshlarimizda oliy ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, kelgusida ular orasida eng iste’dodli, istiqbolli kadrlarni saralab olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Oliy o‘quv yurtlarida zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash amaliyotda xalqaro tajribani keng qo‘llash maqsadida rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari rivojlantirilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlamoqchimizki, har bir oliy o‘quv yurtining ijtimoiy hayotdagi o‘rni uning ko‘p jihatdan ilmiy salohiyati bilan belgilanadi. Shu bois ham davlatimiz rahbari doimo bir qoidani ilgari suradilar. Ya’ni, oldimizda turgan dolzarb vazifa va muammolarni faqat ilm orqali hal qilish mumkin deb uqtiradilar. O‘z farmonlari bilan tasdiqlangan oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida yillar davomida sohada yig‘ilib qolgan muammolarni tizimli va kompleks hal qilish bo‘yicha amaliy choralarni ko‘rsatib berdilar. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish masalalarini eng dolzarb vazifa sifatida belgilab berdilar va konsepsiyada oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat sust olib borilayotgani, kelgusida ilm- fanimiz istiqbolini belgilaydigan iqtidorli yoshlarni ushbu jarayonga keng jalb etishga qaratilgan ishlar yetarli emasligi uqtirildi.

Shu nuqtayi nazardan, kitobda yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga keng jalb qilish masalasiga ham e’tibor berilgan va tadqiqotchilarga qulaylik tug‘dirish maqsadida joylarda oliy o‘quv yurtlarida tashkil qilingan ilmiy kengashlarda dissertatsiyalarni himoya qilishdan tadqiqotchilarimiz yetarli foydalana olmayotganlari afsus bilan qayd qilingan.

Maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish, himoya qilinayotgan dissertatsiyalar sifat va mazmunini yaxshilash masalasini yanada dolzarbligiga urg‘u beradi.

Tabiiyki, kun talabiga hamohang vazifalar nafaqat umumta’lim maktabi o‘qituvchilari, balki har bir oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilari oldiga o‘ta mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi. Har bir o‘rganish, izlanishlar, tadqiqotlarimiz fan, xususan, pedagogika fanidagi hali mavjud muammolarning ilmiy yechimiga qaratilishi, ilmiy takliflar va tavsiyalarimiz amaliy natijaga ega bo‘lishi lozim, deb hisoblaymiz. Modomi-

ki, mamlakatimizda ta’limga etibor umummilliy harakat darajasiga ko‘tarilgan ekan. Buni chuqur his qilgan holda faoliyat yuritishimiz har birimiz uchun zamon talabi bo‘lmog‘i lozim.

Har bir oliy o‘quv yurti o‘qituvchisi Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan tizim oldiga qo‘yilgan vazifani, ya’ni, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan ma’naviy yuksak zamonaviy kadrlarni tarbiyalashni o‘zimizning muqaddas burchimiz, deb hisoblashimiz kerak.

Umuman, kitobning “Yangi O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim” deb nomlanishi bejiz emas. Unda ta’limning har bir bo‘g‘iniga doir, aniqrog‘I, maktabgacha, maktab, kasb ta’limi, oliy ta’lim bosqichlarida yuz bergan o‘zgarishlar, islohotlar mohiyati mantiqan, o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilingan. Bu ham asar qimmatini oshirgan.

Tahlil qilinayotgan mazkur asar haqida shuni aytish joizki, kitobning tili ravon, barcha uchun tushunarli, qiyosiy tahlillarga boy sohada saqlanib qolgan muammoni ro‘yi-rost ko‘rsatib, ularni yechishga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyati, amaliyot natijalari aniq misollar bilan ko‘rsatilgan.

O‘ylaymizki, mazkur kitob har bir ta’lim sohasi xodimi uchun ish stolida qo‘llanma sifatida turuvchi asardir.

Bizningcha, mazkur kitob ta’lim tizimidagi tub o‘zgarishlar ilmiy tahliliga bag‘ishlangan dastlabki ishlardan biri ekanligi bilan ham e’tiborga molik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.
2. Asqarov Ahmadali. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – T.: O‘zbekiston, 2019.
3. Ma’naviyat yulduzlari. To‘plam. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011.
4. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. (Inson psixologiyasi, uning rivojlanishi haqida).
5. Nishonova S. N., Qodirova R. M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: TDPU, 2009. (Pedagogik jarayonlar, tarbiyaning umumiy metodologik asoslari).
6. Xayrullayev M. M. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. (Ma’naviy qadriyatlar, insonning ma’naviy dunyosi haqida falsafiy tushunchalar).